# Oqoltin tuman Axborot-kutubx ona markazi Özbekiston xalq ş oirasi ölkamiz ijodkori Hayotxon Ortiqboyeva hayoti va ijodiga bağişlangan “Bir umr el ardoğida” mavzusida

bibliografik sharh



Oqoltin - 2026 y

## Hayotxon Ortiqboyeva

Hayotxon Ortiqboyeva 1946 yil 10 oktabrda Sirdaryo viloyati, Guliston tumanining Yulduz qişloğida dehqon oilasida tuğildi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti tarix-filologiya fakultetida tahsil oldi 1964-1969. Dastlab maktab öqituvçisi, boğça mudirasi, keyinçalik “Sirdaryo haqiqati” gazetasiga işga ötib, bölim mudiri, boş muharrir örinbosari 1979-1989, “Guliston yangiliklari” - “Gulistanskiye novosti” gazetalari boş muharriri 1989-1990 vazifalarida işladi. 1991 yildan Özbekiston Xalq demokratik partiyasi Sirdaryo viloyati Kengaşi raisining mafkuraviy işlar böyiça örinbosari, 1998 yildan Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi Sirdaryo viloyati bölimining rahbari sifatida faoliyat körsatib keladi. 2002-2005 yillarda Sirdaryo viloyat Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining örinbosari lavozimida ham xizmat qildi. Hayotxon Ortiqboyeva 1989 yildan buyon Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengaşi deputati, 2004-2009 yillarda Özbekiston respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosi sifatida faoliyat körsatgan. Şoiraning “Feruza oqşomlar”, “Köklam ertaklari”, “Humolari qaytgan yurt”, “Ne baxt bu diydor”, “Oy qöngan ayvon” she’riy töplamlari çop etildi. Şuningdek, respublika va viloyat gazeta va jurnallarida muntazam ravişda şe’rlari, hikoyalari, publitsistik maqolalari çop etib kelinadi. Hayotxon Ortiqboyeva Özbekistonda xizmat körsatgan madaniyat xodimi unvoni 2004, “El-yurt hurmati” ordeni 2008-yil bilan taqdirlangan. “Özbek adiblari” S. Mirvaliyev, R. Şokirova. Toşkent, Ğafur Ğulom nomidagi adabiyot va san’at naşriyoti

2016-yil kitobidan.

## SIRDARYONING B ÖYLARIDA

Bu vohani mardlar yurti, navqiron Sirdaryo derlar,
Sayxun daryo, sirli daryo, qatrasi dur daryo derlar.
Qirlarida buğdoyzorlar oltinlaşib kuylab yotar,
Sohilida sölim boğlar, anorzorlar bolga botar,
Yuksak xirmon işqi yaşar dehqonning uylarida
Jamol oçgan bir voha, bu Sirdaryoning böylarida.

Elning öktam öğlonlarin oltin boshi omon bölsa,
Niyatlari tongday toza hamrohlari imon bölsa,
El yukini kötarmoqqa himmatlari omon bölsa,
Xovosliklar bir tomonu, Sayxunobod bir yon bölsa.
Boyovutning yo‘llarida qator-qator karvon bo‘lsa,
Nasib etsin bir yayramoq bu yil hosil töylarida,
Bir töy bölsin dovruğ yoyib Sirdaryoning böylarida.

Öşal töyda dehqon bobo ğayratidan sğz aytaylik,
Ğoliblarning şijoatli mehnatidan sözaytaylik,
Gullayotgan Gulistonning savlatidan söz aytaylik,
Sirdaryoning tilanajak şuhratidan söz aytaylik,
Sir vohasin saltanati, davlatidan söz aytaylik,
Yöllaru dillar çaroğon Sirdaryoning böylarida.

Navröz sabab şioringiz aytar Sizga tilaklarin,
Köngli toza yurtdoşlarim, mening tolmas bilaklarim,

Davrangizga kirganimda, yayrab ketar yuraklarim,
Siz bor ekan, bu elimning hirmon töla mehmoni bölar,
Dasturxonda şirmon noni, uy töla mehmoni bölar,
Yaralgusi ajib doston Sirdaryoning böylarida.

## ÖZBEKISTON

Bu olam mehrdan iborat faqat
Dunyoda xiyonat borligi yolğon.
Dillarda yaşarkan vafo, diyonat,
Ezgu tuyğularni saqlaydi omon.

Döstlar bor shodliging körgani baham,
Nigohi öylarin munavvar etar.
Könglingga örmalab, kirolmaydi ğam,
Kimningdir xayoli bağring ilitar.

Yölga çiqarkansan ergaşar quyoş,
Yuragingda munis qöşiq jaranglar.
Umring oq umidli tonglarga sirdoş,
Qöşiqqa solmoqqa ozmu bu ranglar?

Qalbingda quyoşday Vataning oti
Muzaffar qöşiqdir, tugamas doston.
U bilan munavvar butun hayoting,
Toza e'tiqoddir, hur Özbekiston.

## MIRZAÇÖLNING BOĞLARIDA

Mirzaçölning boğlarida gulladi anor,
Lolalarning alvon rangli boğlarga köçdi.
Anor gulin nafaslari - behiştiy ifor,
Subhi sodiq köngillarga shavq bölib uçdi.
Mirzaçölning boğlarida gulladi anor.

Bu boğlarning çiroyida ajib tarovat,
Bir bor kezsang bir umrga bölarsan xumor.
Bu boğlarning bağri töla mehr, sahovat
Bunda ösgan har niholning bir xislati bor,
Mirzaçölning boğlarida gulladi anor.

Çorlab-çorlab anorzorga jannat quşlarin,
Qörib anor gullarining sirli tuşlarin-
Toliqqan el erta tongda uyğonib ketar,
"Çölda anor gulladi" deb, xuşxabar eltar
Bu boğlarni ta'rif etsam, ertaklar bekor,
Mirzaçölning boğlarida gulladi anor.

## GULISTONIM

Közlarimning nuri ham satrlarga joylanar,
Sen haqda yozar bölsam, gulşanim Gulistonim.
Senga atalgan mehrim bir qöşiqqa aylanar,
Bağrida kulib-yayrab unganim, Gulistonim.
Suyokli saharlaring umrim uçun ma'nodir,
Noming yurakkinamda jaranglagan sadodir,
Etmiş kiftldoş elatga bağring yoruğ ma'vodir,
Davlatimsan, jon şahrim, pok şa'nim, Gulistonim.
Dehqon otam şu çölda boğ yaratib şodlangan,
Farzandingman, bağringda jasoratga otlangan.
Senda ilk qöşiqlarim parvozga qanotlangan,
Köksimda bedor yurak, imkonim, Gulistonim.
Boğlaring körk talaşar husnda bahor bilan,
Dilimni yayratib qad rostlading viqor bilan,
Xizr nazari tuşgan, deyman iftixor bilan,

Munavvar tongi toza osmonim, Gulistonim.

## BU ÇÖLLARDA

Bu çöllarda qançа ötgan karvonlarning izi qoldi,
Manziliga etolmay ne öğlonlarning özi qoldi.
Obihayot izlay-izlay umidlari sarob bölgan —
Insonlarning bu yöllarda armon töla közi qoldi.
Bu zaminni gullatmoqqa bel boğladi aql-u zako,
Çöl dardiga inson qöli topdi malham, topdi davo.
Bu makonga suv etaklab, nur etaklab mardlar keldi,
Çöl örnida jannat misol sölim boğlar böldi barpo.
Buğdoyzorlar şovillaydi, oftob quçgan dalalarda,
Anorzorlar közni olar gulga kirgan pallalarda,
Çölda dovruq eylaganlarning ismi mağrur yangrab turar,
Gulistonning osmonida yangrayotgan yallalarda.

## Nigohlaringdan topdim

Bir umr kutganim mehrni, döstim,
Sening nigohingdan topdim, ehtimol.
Bağrimda nasimdek bir tuyğu kezadi,
Uni tuşuntirmoq, sözlamoq malol.
Munavvar tonglarim eltar sen tomon,
Baxt, axir, mehrni tuyib yaşamoq.
Bilsang gar şu yoruğ tuyğuni omon -
Asramoq kerakdir, ming bor asramoq.
U nurli riştadir yuraklar aro,
Kuylanmagan qöşiq, aytilmagan söz.
Ko‘ngil mulkidagi bir sirli dunyo
Yuraklar huvillab qolgay uningsiz.
Qaçon öylarimga kirding, bilmadim,
Sening taşrifingdan titroqdadir jon.
Ğurur panjarasin sindirolmadim
Taqdir irodamni qilar imtihon.
Dardimiz sözlaşga yöq ekan imkon
Dillarni ezmasin şubha, söroqlar.
Sodda yuraklarga bölsin tarjimon
Har kun uçraşganda munis nigohlar.

## SULTONI BOR BU YURTNING

Endi bu yurt şoirlari şe’r aytganda, yolğon aytmas,
Harbga ketgan öğonlarin temir tobut olib qaytmas,
Ming şukrkim, onalarning diydasida armon qotmas,
Bobolarning hoqi yotgan yurt oftobi endi botmas,
Osmon qadar yuksalmoqqa imkoni bor bu yurtning.
Tarixidan kelar ne-ne daxolar savlat tökib,
Jaloliddin, Naqşbandiy, Sinolar savlat tökib,
Mir Alişer hamda Zebunisolar savlat tökib,
Tarixiga yaraşgan şuxrat-şoni bor bu yurtning.
Gödaklar ilk qadamida şaxdu-şiddat ulgayar,
Köngilda yaproq yozib, toza niyat ulgayar,
Ki elda imon, diyonat, pok hamiyat ulğayar,
Baxt Humosi qönib turgan nişoni bor bu yurtning.
Özbegim deb, özligim deb yurtin ardoqlagan,
Şu Vatanga çin farzand ul el işonçin oqlagan,
Keçib oromidin, jondin, yurt tinçin söroqlagan,
Jonfido yurtboşisi, posboni bor bu yurtning,
Har göşada sultoni bor, xoqoni bor bu yurtning.

## ISTIQLOL NURIDAN OYLANGAN DIYER

Osmonida oftob aylangan diyer,
Istiqlol nuridan oylangan diyer,
Tarixi Temurga boylangan diyer,
Mehri jonimizga joylangan diyer,
Jahon içra mulki Turonsan, Vatan,
Ruhimdagi şiddat, böronsan, Vatan.
Qaroğimda asray sarhadlaringni,
Nurli manzillaring, bekatlaringni.
Ismingni kuylagan sado bölarman,
Boşimda nur kabi fido bölarman,
Men uyğoq daryoman, bedorman, Vatan,
Seni asraguvçi tumorman, Vatan.
Köksim osmon bölar mehring öylasam,
Sözim doston bölar madhing söylasam,
Buxoriylar yurti qutluğ makonsan,
Avlodi bek ötgan Özbekistonsan,
Jismimdagi jonsan, imonsan, Vatan,
Nurli iqbol, nurli jahonsan, Vatan.